

QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI ANTROPONEKROTOPONIMLAR

Yusupov San‘at Shuxratovich,

Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi

Filologiya fanlari doktori (PhD)

E-mail: sanatyusupov909@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18296183>

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston hududida qayd etilgan nekrotoponimlarning antroponimlar bilan bog‘liq qatlami tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida nekrotoponimlar tarkibida faol ishtirok etuvchi ota/ata, bobo/baba, eshon/iyshan, avliyo/evliye, oxun/axun, xo‘ja hamda maxsum/maqsim komponentlarining nominativ va semantik xususiyatlari ochib beriladi. Mazkur komponentlar orqali nekrotoponimlarning vujudga kelish motivlari, ularning diniy, ijtimoiy va tarixiy omillar bilan aloqadorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston nekrotoponimik tizimida antroponekrotoponimlar yetakchi o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nekrotoponim, antroponekrotoponim, antroponim, indikator, Qoraqalpog‘iston, toponimika.

Аннотация: В статье анализируется антропонимический слой некропонимов, зафиксированных в Каракалпакстане. В ходе исследования выявляются номинативно-семантические свойства компонентов оta/ata, бобо/баба, эшон/ийшан, авлия/евлие, ахун/ахун, хожя и махсум/махсим, активно участвующих в формировании некропонимов. Через эти компоненты раскрываются мотивы возникновения некропонимов, их связь с религиозными, социальными и историческими факторами. Результаты исследования показывают, что антропонекропонимы занимают ведущее место в некропонимической системе Каракалпакстана.

Ключевые слова: некропоним, антропонекропоним, антропоним, индикатор, Каракалпакстан, топонимия.

Abstract: The article analyzes the anthroponymic layer of necroponyms recorded in Karakalpakstan. During the study, the nominative and semantic properties of the components ota/ata, bobo/baba, eshon/iyshan, avliya/evliye, akhun/akhun, khozha and makhsim/makhsim, which actively participate in the composition of necroponyms, are revealed. Through these components, the motives for the emergence of necroponyms, their connection with religious, social and historical factors are revealed. The results of the study show that anthroponecroponyms occupy a leading place in the necroponymic system of Karakalpakstan.

Keywords: necroponym, anthroponecroponym, anthroponym, indicator, Karakalpakstan, toponymy.

Kirish. Nekrotoponimlar ham toponimlarning boshqa turlari kabi nomlanishida turli motivlar asos bo‘ladi. Lekin ko‘pchiligi antroponimlar bilan aloqador ekanligi namoyon bo‘ldi. Chunki nekrotoponimlarning aksariyat qismi mazkur hududdagi katta ulamolar, islom dinini tarqatgan yoki shu yo‘nalishda katta bilim va tajribaga ega bo‘lgan insonlar nomi bilan atalgan.

Adabiyotlar tahlili. Kishi ismlari va familiyalari, laqab va taxalluslari orqali ma‘lum bir guruh va qavm atalish hollari mavjud. Ulardan yasalgan turar joy nomlari antroponimlar deb yuritiladi. Masalan, Jomboy tumanida Nazar nomli qishloq bor. Nazar – shu guruh asoschisining nomi. O‘zbeklarning qatag‘on urug‘ining kichik to‘pi

nomi nazarto‘pi deb ataladi. Qishloq ana shu etnik guruh nomi bilan atalgan[1]”.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida qayd etilgan nekrotoponimlar asosida olib borildi. Ish jarayonida tavsifiy va semantik tahlil metodlari yetakchi o‘rin tutdi. Shuningdek, komponent tahlil orqali nekrotoponim tarkibidagi apellyativ va indikator qismlar ajratildi. Statistik metod yordamida ayrim komponentlarning faol yoki kam ishlatilish darajasi aniqlandi. Zarur hollarda o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi parallel shakllar qiyoslab tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Hududdagi nekrotoponimlarning nomlanishida quyidagi turlarni ajratib ko‘rsatdik:

Eng ko‘p uchraydiganlaridan biri “ota” komponentli nekrotoponim bo‘lib, mazkur komponent ko‘pincha indikator bo‘lib keladi. O‘zbek tilida “ota” shaklida, qoraqalpoq tilida esa “ata” shaklida yoziladi:

“Abdujalil ota” ,“Adil ata” ,“Annet ata” ,“Avazniyoz ota” “Badir ota”

Bundan tashqari, mazkur indikator faqat inson nomi bilan bog‘liq apellyativlarga emas, balki boshqa tip so‘zlarga qo‘shilib ham nekrotoponim ma‘nosini anglatishi mumkin. Jumladan:

- a) geografik relyef xususiyati: **“Aqqum ota” ,“Ata aral”**
- b) inson xarakter xususiyatini ifodalaydi: **“Kechirmas ota”**
- v) ijtimoiy tabaqasiga ko‘ra: **“Miskin ota”**
- g) insonning jismoniy qobiliyatiga ko‘ra: **“Polvon ota”**
- d) insonning tashqi ko‘rinishiga nisbatan: **“Sarixo‘ja ota”**
- e) insonning biron bir xislatiga nisbatan: **“Sheytlik ata” ,“Shiydon ota”**
- f) diniy unvonni bildiruvchi so‘z: **“Maqsim ota”**
- j) insonning biror bir predmetga egaligini bildiruvchi so‘z bilan: **“Qabaqli ata”**

Ko‘p uchraydigan indikatorlardan yana biri **“bobo”** (qoraqalpoqcha **“baba”** indikator bo‘lib hisoblanadi:

“Abdimalik baba” ,“Abdulla bobo” ,“Ajiniyoz bobo” ,“Aqpan baba” ,“Aris bobo” ,“Azizler bobo” ,“Bilol bobo” ,“Do‘soq bobo”

“Bobo” komponentli nekrotoponimlar ham, asosan, antroponimlarga bog‘lanib keladi. Lekin ba’zida insonning xarakteriga, xulqiga, ijtimoiy holatiga, tashqi ko‘rinishiga va boshqa shu kabi xususiyatlarini ifodalovchi apellyativlarga birikib kelishi ham mumkin:

- a) insonning ruhiy holatini ifodalovchi: **“Alamli bobo”**
- b) insonning xarakter-xususiyatini ifodalovchi: **“Dali bobo”**
- v) insonning ijtimoiy holatini: **“Miskin bobo”**
- g) insonning jismoniy holatiga nisbatan: **“Polvon bobo”**
- d) insonning tashqi ko‘rinishiga nisbatan: **“Qora bobo”**
- e) insonning kasbiga nisbatan: **“Chiroqchi bobo”**
- j) insonning jismoniy kamchiligiga nisbatan: **“Cho‘loq eshon bobo”**

z) inson gavdasiga nisbatan: *“To‘mpoq bobo”*

e) insonning psixologik xususiyatiga nisbatan: *Jigarband bobo*

y) inson qo‘lidagi qurolga nisbatan: *“Qilichli bobo”*

j) diniy nasl-nasabni ifodalashiga nisbatan: *“Xo‘ja bobo”*

z) qadimgi davrga oid tarixiy mansabni ifodalashiga nisbatan: *“Yuz boshi bobo”*

Yana nekrotoponimlar tarkibida ko‘p ishlatiladigan indikatorlardan biri *eshon* (qoraqalpoq tilida *iyshan*) so‘zi hisoblanadi:

“Abdikerim eshon”, “Abdinasir eshon”, “Abdulla eshon”, “Absetter iyshan”, “Alao‘tdin iyshan”, “Arzi eshon”, “Avaz iyshan”, “Axan iyshan” Ushbu tip nekrotoponimlarda ba‘zan apellyativida antroponimning ba‘zi xususiyatlari o‘z aksini topishi mumkin:

a) “tarki dunyo qilgan kishi” ma’nosini ifodalovchi: *“Darvesh eshon”*

b) turkiy urug‘ nomini ifodalovchi: *“No‘g‘ay eshon”*

v) urug‘ ichidagi kichik bo‘laklar nomini ifodalovchi: *“Qanli iyshan”*

Qangli urug‘i qoraqalpoqlarning o‘n to‘rt urug‘ arisiga kiradigan urug‘ nomi bo‘lib, u o‘z navbatida o‘n bir kichik urug‘larga bo‘linadi[2]

g) tabiiy geografik relfni ifodalovchi: *“Qaraqum iyshan”*

d) tarixiy lavozim ma’nosini ifodalovchi: *“Qazi iyshan”*

y) diniy tushunchalarni ifodalovchi: *“Surali eshon”*

Hudud nekrotoponimlari tarkibida ko‘p ishlatiladigan indikatorlardan yana biri *“avliyo // evliye”* so‘zi sanaladi:

“Masharip avliyo”, “Asnaujay evliye”, “Atanin avliyesi”, “Qo‘shniyoz avliyo”, “Ravshan axun avliyesi”, “Tajek avliye”, “Tanabay avliyo”, “Shombay avliyo” kabi.

Bu ko‘rinishdagi nekrotoponimlarning apellyativlari insonlarning har xil xususiyatlarini ifodalovchi komponentlardan iborat bo‘lishi ham mumkin:

a) ba‘zan *bola, qiz* kabi qismlar ishtirok etadi:

“Bala avliye”, “Bala evliye”, “Qiz avliyosi”, “Qiz avliyesi” kabi;

b) *“din”* komponenti bilan ifodalanadi: *“Din avliyo”*

v) qadimgi lavozim nomi bilan ifodalanadi: *“Qazi avliyo”*

g) payg‘ambar avlodi bilan qarindoshlik ma’nosini ifodalovchi komponentlar bilan ifodalanadi: *“Xo‘ja avliyo”, “Xo‘ja avliyo”* kabi;

d) etnonekrotoponimlar – millat nomlari bilan ifodalanadi:

“Qozoq avliyo”, “Rus avliyo”, “O‘ris avliye”, “O‘ris avliye” kabi;

e) millat ichidagi urug‘lar nomini ifodalovchi komponentlar bilan ifodalandi: *“Jamansha avliye”, “Qazayaqli avliye”, “Qoldavli avliye”, “Yabu avliyo”* kabi;

y) “shahid” yoki “shahidli” (shahid bo‘lgan inson dafn qilingan) komponenti bilan ifodalanadi: *“Shittli avliye”* kabi;

j) tabiiy relyef xususiyatini bildiruvchi soʻz bilan ifodalanadi: *“Aqqum Avliyo”, “Boz avliyo”*

z) “madaniy yoki yovvoyi holda oʻsuvchi daraxt” maʼnosini bildiradigan komponent orqali ifodalanadi: *“Toʻrangʻil avliyo”, “Avliyo terak”*

Demak, “avliyo” komponenti koʻpchilik oʻrinlarda indikator boʻlib keladi. Bunday nekrotoponimlar

Oxun (qoraqalpochcha *axun*) komponenti koʻpchilik oʻrinlarda indikator boʻlib keladi. Bunday nekrotoponimlar Qoraqalpogʻiston nekrotoponimlari orasida 23 ta boʻlib, bu umumning deyarli 5 % ni tashkil qiladi. Ular, asosan, antroponim apellyativli nekrotoponimlarga qoʻshilib keladi. Bunda apellyativ va indikator alohida yoziladi:

“Ali oxun”, “Bayimbet axun”, “Bazarbay axun”, “Basher oxun”, “Dastan axun”, “Embergen oxun”

Baʼzan ushbu tip nekrotoponimlar tarkibida apellyativ va indikator qoʻshilib, qoʻshma nekrotoponim sifatida ham ishlatiladi: *“Eshimoxun”, “Sultanaxun”* kabi.

Hudud nekrotoponimlari tarkibida *xoʻja* komponenti ham koʻpincha indikator boʻlib keladi. Nekrotoponimlar ichida mazkur komponentli nomlar 15 ta boʻlib, umumning 3,2 % ini tashkil qiladi. Ular, asosan, antroponim asosli apellyativlarga bogʻlanib keladi: *“Bojoq xoʻja”, “Dovud xoʻja”, “Qasim xoʻja”, “Yangiberdi xoʻja”, “Shavten xoʻja”, “Seksen xoja”*.

Nekrotoponimlar tarkibida *“Nur xoʻja”* (Amudaryo tumani Tor yop MFYda joylashgan) nekrotoponimi ham mavjud boʻlib, “nur” soʻzi ikki maʼnoni ifodalaydi: 1-maʼnosi “yorugʻlik”, 2-maʼnosi “kishi ismining qisqargan shakli”. Bizningcha, yuqoridagi nekrotoponim nominatsiyasida ikkinchi variant toʻgʻri boʻlsa kerak.

“Xoʻja” komponenti baʼzan yakka oʻzi apellyativ boʻlib keladi, baʼzan “qoʻygʻan” soʻzi bilan bogʻlanib keladi. Bunda “qoʻygʻan” soʻzi mazkur joyga “qoʻyilgan”, yaʼni “dafn qilingan” degan maʼnoni bildiradi: *“Xoʻja”* (Kegeyli tumanining “Qumshungʻil” OFYda joylashgan), *“Xoʻja qoygʻan”* (Taxtakoʻpir tumanining Qoraoy ovulida), *“Xoja qoygʻan”* (Qoraʻzak tumanining “Berdaq” APJda). Keyingi nekrotoponim birgina komponentdan iborat boʻlsa ham, baribir yuqoridagi maʼnoni ifodalaydi.

Baʼzan *“xoʻja”* komponentli nekrotoponimlar oʻzi bogʻlanib kelgan antroponim komponentlarining baʼzi belgi-xususiyatlarini ham ifodalab keladi:

a) ijtimoiy ahvolini bildiradi: *“Bay xoja”*

b) kelib chiqishi qaerdan ekanligini bildiradi: *“Qarshili xoʻja”*

v) miqdorni bildiradi: *“Qoʻs maxsim xoja”*

g) insonning tashqi koʻrinishi, gavda tuzilishini bildiradi: *“Qatma xoʻja”*

d) baʼzan oykonim maʼnosini bildiradi. Ammo bu nekrotoponim mazkur oykonim hududida joylashganligi bois, u nekrotoponimni ham ifodalaydi: *“Xoʻja qalʼa”*

Maxsum (qoraqalpochcha *maqsim*) komponentli nekrotoponim jami 5 ta boʻlib, umumning bir foizdan sal koʻpini tashkil qiladi. Ular faqat antroponim apellyativli boʻlib,

ushbu komponent indikator vazifasida keladi: “*Musa maqsim*”, “*Nasrulla maqsim*”, “*Xolniov maxsum*”, “*O‘tegen maqsim*”, “*Shadi maqsim*”

Bu guruhga kiruvchi nekrotoponimlarning qolganlari ham antroponimlar bilan bog‘liq bo‘lib, kishilarning u yoki bu xususiyatlari, tashqi ko‘rinishi, jismoniy kamchiligi, xarakteri va shu kabilar bilan bog‘liq hisoblanadi. Mazkur guruhdagi nekrotoponimlar jami 267 ta bo‘lib, umumning 53% ini tashkil qiladi.

Olingan natijalar Qoraqalpog‘iston nekrotoponimik tizimining shakllanishida shaxs omili muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. V.A. Nikonov tomonidan antropooykonimlarga nisbatan bildirilgan qarashlarni nekrotoponimlarga ham tatbiq etish mumkin. Chunki muayyan shaxs dafn etilgan joy vaqt o‘tishi bilan uning nomi orqali tanilgan va shu tariqa toponimlashgan. Indikator komponentlarning xilma-xilligi nekrotoponimlarning faqat til hodisasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi birliklar ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Qoraqalpog‘iston hududidagi antroponekrotoponimlar tarixiy, diniy va ijtimoiy omillar ta‘sirida shakllangan murakkab tizimni tashkil etadi. Ularning aksariyati antroponimlar asosida vujudga kelgan bo‘lib, muayyan shaxsning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini ifodalaydi. Mazkur tadqiqot natijalari nekrotoponimlarni yanada chuqurroq, jumladan, lingvomadaniy va tarixiy-geografik yo‘nalishlarda o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўринбоев Б. Самарқанд топонимларининг изоҳи. – Самарқанд: СамДУ., 1997. – Б.202.
2. Nizanov M. Qoraqalpoqlar. – Nukus: Bilim, 2020. – B.191.